

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

Nemis tili xorijiy til sifatida darsliklarining sifatini tekshirish haqida .....	247
<b>S.Z.Yoʻldoshev</b>	
Sport faoliyati yoʻnalishi talabalariga valeologiya fanini oʻqitishning didaktik imkoniyatlari .....	251
<b>I.O.Umarov</b>	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida oʻquv-jangovar sifatlarni rivojlantirishning taʼlim texnologiyasi .....	256
<b>Sh.M.Bazarbayeva</b>	
Yettisuv viloyatida oʻlat epidemiyasiga qarshi kurash siyosati (1900-1910-yillar).....	264
<b>O.X.Mahamadjonova</b>	
Bolalar folkloriga oid oʻn ikki choʻp va lapar oʻyinlari tavsifi va taʼrifiga doir .....	268
<b>G.A.Donisheva</b>	
Tarixiy jihatdan til leksikasining oʻrganilish darajasi (Oybekning Navoiy romani misolida) .....	273
<b>L.A.Xaitov</b>	
Hakim termiziy merosida inson vujudi (borligʻi) va ruhiy uzviyligi, inson oʻzligi (nafsi) muammosi. ....	276
<b>Sh.S.Kodirova</b>	
Teaching English language to geology students .....	280
<b>S.S.Xoʻjiyeva</b>	
Maktab kimyo darslarida innovatsion metodlardan foydalanish .....	283
<b>F.I.Sharipova</b>	
Developing reading comprehension at future nurses .....	288
<b>U.B.Usmonova</b>	
Sarlavhalar publitsistik matnning muhim qismi .....	294
<b>K.X.Avazov</b>	
Региональное и международное сотрудничество в целях обеспечения безопасности, стабильности в Центрально-Азиатском регионе .....	297
<b>A.N.Qosimov</b>	
Sport vositasida oʻquvchilarda milliy oʻzlikni anglash va gʻurur-iftixot tuygʻusini shakllantirishning pedagogik zarurati .....	303
<b>A.T.Nishonov</b>	
OTM talabalarida axborot oqimini tahlil qilish koʻnikmalarini shakllantirishning pedagogik jihatlari .....	310
<b>M.X.Tillavoldiyeva</b>	
Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy taraqqiyot oʻrtasidagi aloqadorlik muammolari .....	314
<b>U.D.Xudoyorov</b>	
Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi miqdor va sifat koʻrsatkichlarining xususiyatlari.....	318
<b>S.U.Allayarova</b>	
Oʻquvchilar lugʻat boyligini oshirishning lingvo-pedagogik xususiyatlari.....	325
<b>Ch.T.Qurbonova</b>	
Tabiiy geografiya va geoekologiyada GAT texnologiyalaridan foydalanish.....	329
<b>Z.A.Kendjaeva</b>	
Ilk, jahon dinlari va falsafiy qarashlarda shukronalikka munosabat.....	333
<b>L.S.Sultonova</b>	
Milliy qadriyatlarining innovatsion taraqqiyot talablari asosida rivojlantirish .....	338
<b>Sh.T.Temirov</b>	
Mir Muhammad Siddiq Hashmat shaxsiy kutubxonasining Buxoro ilmiy-adabiy muhitidagi oʻrni.....	341
<b>S.X.Kaxxarov</b>	
Yoshlarda harbiy vatanparvarlik kompetensiyalarini shakllantirishda harbiy madaniyat omili .....	346
<b>A.R.Joʻrayev</b>	
Minnatdorchilik bildirish nutqiy janri verbal, noverbal va lingvistik atributlarining oʻziga xosligi .....	351
<b>M.C.Muxamedova</b>	
Роль Музеев Узбекистана в жизни общества (начало XX века).....	356
<b>G.J.Tulenova</b>	
On the issue of implementation of projects on the development and practical	



UO‘K: 894.375

**TARIXIY JIHATDAN TIL LEKSIKASINING O‘RGANILISH DARAJASI  
(OYBEKNING NAVOIY ROMANI MISOLIDA)****УРОВЕНЬ ИЗУЧЕНИЯ ЯЗЫКОВОЙ ЛЕКСИКОНЫ С ИСТОРИЧЕСКОЙ ТОЧКИ  
ЗРЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА АЙБЕКА «НАВОИ»)****LEVEL OF STUDYING LANGUAGE LEXICON FROM A HISTORICAL POINT OF VIEW  
(IN THE EXAMPLE OF AIBEK'S NOVEL "NAVOI")****Donisheva Gulro‘y Axrorqul qizi** 

Jizzax davlat pedagogikaU Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘limda xorijiy til kafedrasini o‘qituvchisi.

**Annotatsiya**

Asarlar tilining leksik-semantik xususiyatlari, morfologik tuzilishi, sintaktik qurilishi, lug‘aviy til birliklari tilshunos olimlar tomonidan aniqlanib, ular xususida ilmiy monografiyalar, maqolalar nashr qilindi. Maqolada “Navoiy” romani tilining leksik qatlamlarini o‘rganishga oid fikrlar keltirilgan.

**Аннотация**

Лингвистами были определены лексико-семантические особенности языка произведений, морфологическая структура, синтаксическая структура, лексические единицы языка, по ним изданы научные монографии и статьи. В статье содержатся идеи по изучению лексических пластов «навоийского» цыганского языка.

**Abstract**

The lexical-semantic features of the language of the works, morphological structure, syntactic structure, lexical language units were determined by linguists, and scientific monographs and articles were published on them. The article presents ideas on the study of the lexical layers of the “Navoi” novel’s language.

**Kalit so‘zlar:** leksika, tarixiy-etimologik qatlam, matn, asar, ma‘no, matnning mohiyati, frazeologiya, nutq, lug‘at tarkibi.

**Ключевые слова:** лексика, историко-этимологический пласт, текст, произведение, содержание текста, сущность, фразеология, речь, словарь.

**Key words:** lexicon, historical-etymological layer, text, work, meaning, essence of the text, phraseology, speech, vocabulary.

**KIRISH**

Tilning lug‘at tarkibi, tildagi so‘zlar majmui **leksika** deb yuritiladi. Shu sababli leksika so‘zi adabiy tilning lug‘at tarkibi ma‘nosida ham, biror sheva yoki dialektning lug‘at tarkibini ifodalash uchun ham (dialektal leksika), ma‘lum bir kasb-hunar va shu kabi sohaga xos lug‘at tarkibi ma‘nosida ham (terminologik leksika), hatto ayrim yozuvchi asari (yoki asarlari)ning so‘zlari majmui ma‘nosida ham (Oybekning asarlari leksikasi yoki “Navoiy” romani leksikasi) qo‘llanaveradi.

O‘zbek tili leksikasini tarixiy-etimologik ajratish bu til lug‘at tarkibini boyitgan etimologik-geneologik manbalarni bilib olish nuqtai nazardan, shuningdek, o‘zbek tilining o‘tmishda qanday tillar ta‘sirida bo‘lgani, qanday tillar bilan to‘qnashganini va aloqada bo‘lganini aniqlash, belgilash nuqtai nazaridan ham muhimdir. So‘zlarni tarixiy-etimologik qatlamga ajratish leksikani sistema sifatida o‘rganishning muhim usullaridan biridir.

So‘zlarni tarixiy-etimologik nuqtai nazardan guruhlash usuli hozirgi tilshunoslik fanida keng qullanilayotgan bo‘lsa ham lingvistik ma‘nodagi qatlam va lug‘aviy qatlam tushunchalari ma‘lum ilmiy aniqlanganlikni talab qiladi.

Qatlam tushunchasini o‘zbek tili leksikasidagi so‘zlarning tarixiy-etimologik guruhlariga shartli ravishda tadbiiq etish mumkin. Chunki o‘zbek tilida azaldan asl turkiy so‘zlar mavjud

edi. Keyinchalik davrlar o'tishi bilan bu til leksikasida fors-tojik, arab, mo'g'ul, rus, yangi davrda esa ingliz tilidan so'z guruhlarini kirib keldi va ular o'zbek tili leksikasidan o'rin oldi. Bu so'z guruhlarini o'zbek tiliga bir davrda emas, turli davrlarda, turli tillar, ya'ni genetik manbalardan kirdi. Shu sababli ham mana shu jarayon o'zbek tili leksikasida turli davrlarda yuz bergan lug'aviy qatlamlanish tarzida shartli ravishda tasavvur qilinishi lozim. Bu lug'aviy qatlamlanishni ikki xil belgi bilan harakterlash mumkin: Birinchidan, so'zlarning o'zbek tiliga kirib kelishi turli davrlarda muayyan vaqt oralig'ida yuz bergan va bu jarayon xronologik tarzda amalga oshgan, ikkinchidan, so'zlar turli etimologik manbalardan kirib kelgan, shuning uchun ham har bir leksik qatlam o'ziga xos, mustaqil hodisa hisoblangan. Demak, so'zlarning keltirilgan tiplarini tarixiy-etimologik qatlamlar deb yuritish to'g'ri va konuniydir. Chunki o'zbek tili leksikasida leksik qatlamlarning yuzaga kelishi o'z mohiyatiga ko'ra tarixiy xronologik jarayon bo'lib, har bir lug'aviy qatlam etimologik jihatdan turli tillarga mansub. Shunday qilib, o'zbek tilidagi so'zlarining tarixiy etimologik guruhlarini haqida gap borganda qatlam tushunchasining qo'llash o'rinlidir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbek tili, uning oliy shakli bo'lgan o'zbek adabiy tili boy lug'at tarkibiga egadir. O'zbek tilining ijtimoiy funksiyasi hozirda nihoyatda keng bo'lib, bu hol uning lug'at tarkibining mislsiz darajada boyishiga sabab bo'lmoqda. Hozirga qadar tilshunoslikda biror bir tilning lug'at tarkibida qancha so'z borligi, uning miqdori aniq belgilangan emas. Shu kabi o'zbek tili lug'at tarkibidagi so'zlarni miqdori haqida ham aniq tasavvurlar yo'q. Bu borada ba'zi bir tahminlar bor, xolos. Taniqli lug'atshunos **R.Abdurahmonovning** ma'lumotiga ko'ra, tilshunos **Elbek** Navoiy davridan 1930-yillarga qadar o'zbek tilida **40-45 ming** so'z bo'lgan, deb tahmin qilgan. Bu tahmini tadqiqotchilardan **N.Turaqulov** ham to'la tasdiqlaydi [1.7-b.]. Bunday tahminlar keyingi davrlarda ham ko'pgina olimlar tomonidan qayd etildi. Professor **Q.Xonazarovning** fikricha, 20-yillar o'zbek adabiy tilida **9-ming** so'z bo'lgan va hozirga kelib bu so'zlar miqdori **60-mingga** etgan. Q.Xonazarovning bu tahmini o'zbekcha-ruscha va izohli lug'atlarga kiritilgan so'zlar miqdoriga asoslangani uchun mutaxassislar tomonidan tanqid qilindi.[1.7]

**R.Abdurahmonovning** hozirgi o'zbek adabiy tilidagi so'zlar miqdori **80 mingdan** ortiq deb biladi. Professor **E.Fozilov** o'zbek tilidagi so'zlar miqdorini, ehtimol, **100-200 mingdan** ortiq, deb tahmin qiladi.

B.Vafoyevning qayd etishiga ko'ra, Alisher Navoiy asarlarida umuman olganda mustaqil so'z sifatida 26035 so'z mavjud.[2.118-b.]

O'zbek tili lug'at tarkibining umumiy lug'aviy boyligi quyidagilardan iborat:

1. O'zbek adabiy tili leksikasi.
2. O'zbek dialekt va shevalari leksikasi.
3. O'zbek tilining professional leksikasi.
4. O'zbek tilining boshqa til ijtimoiy-kommunikativ tarmoqlari (jargon va boshqalar) leksikasi.
5. O'zbek folklori leksikasi.
6. Adabiy til frazeologiyasi, dialektal frazeologiya va folklor frazeologiyasi.

Keltirilgan lug'aviy hodisalarga yanada aniqroq yondashadigan bo'lsak, o'zbek tilining umumiy lug'at tarkibi so'zlarning quyidagi guruhlaridan iborat ekanligini qayd etish mumkin:

- I. O'zbek tilidagi keng iste'mol so'zlar.
- II. Professional leksika.
- III. Dialektal leksika.
- IV. Hozir tilda iste'moldan chiqqan, ammo bazan nutqiy va uslubiy talablarga binoan ishlatiluvchi so'zlar.
- V. Ilmiy termenologiya.
- VI. Jargonlar.
- VII. Adabiy va dialektal frazeologiya.
- VIII. Atoqli otlar:

1. O'zbek antroponimlari (ism-familiya).
2. O'zbek etnonimiyasi (urug', qabila, millat, xalq nomi).
3. Zoonimiya (qush, xayvon nomlari).
4. Teonimiya (afsonaviy mavjudodlar nomi).

5. Toponimiya (joy nomlari).

6. Astroponimlar (osmon jismlari nomi).

“Navoiy” romani leksikasini o‘rganish jarayonida, biz asarda qo‘llanilgan ism, taxallus va laqablarni ham o‘rganib chiqdik. Asarda birgina antraponimlar ikki yuzdan ortiq qo‘llanganini ko‘rish mumkin. “Navoiy” romani badiiy asar bo‘lishligiga qaramay, unda tarixiy voqealar aks etganligi sababli ham, tabiiyki, asarda buyuk tarixiy shaxslar (shohlar, vazirlar, shoirlar, olimlar va hokazolar)ning nomlari ham qayd etilgan. Asarda uchragan tarixiy shaxslar, podshoh-shahzodalar, olim, shoir kabi buyuk shaxslar nomlari quyidagilar: Alisher Navoiy (19), Amir Temur (9), Sulton Husayn Bayqaro (12), Iskandar Zulkarnayn (15), Hofiz Sheroziy (18), Abduraxmon Jomiy (19), Firdavsiy (20), Nizomiy Ganjaviy (20), Abulqosim Bobur (20), Mirzo Ulug‘bek (21), Abusaid Mirzo (22), Xuja Fazlullo Abullays (22), Shohrux Mirzo (28), Abu Ali ibn Sino (21), G‘iyosiddin Kichkina (33), Sharafiddin Ali Yazdiy (33), Faririddin Attor (34), Lutfiy (34), Darveshali (35), Suqrot (36), Aflotun (36), Arastu (36), Sulton Mahmud (40), Zahiriddin Muhammad Bobur (115), Hasan Ardasher (133), Kamoliddin Behzod (142), Hadichabegim (145), Chingizxon (172), Badiuzzamon (104), Mo‘min Mirzo (194), Umar Hayyom (228) kabilar. Asarda keltirilgan boshqa nomlarni (etnonimlar, zoonimlar, toponimlar va b.) izohlash va misollar keltirishni maqolaning hajmini inobatga olgan holda keyingi ishlarimizda ko‘rib chiqishni maqsad qildik.

#### NATIJA VA MUHOKAMA

O‘zbek tili leksikasi taraqqiyoti jarayonida bir qancha tilshunoslarimiz bu xususda ish olib borganligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, G.Muhammadjonova “O‘zbek tili leksikasi taraqqiyotining ba‘zi masalalari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyani yoqlagan. O.Abdunazarov “Yigirmanchi yillardagi o‘zbek adabiy tili leksikasi va frazeologiyasi taraqqiyotining ba‘zi masalalari” mavzusi ustida ishlagan. I.Rasulov “Ulug‘ Vatan urushi davrida o‘zbek tili leksikasining taraqqiyoti” mavzusida tadqiqot olib borgan.

G.Muhammadjonova o‘z ishida leksika haqida shunday fikr yuritadi: “Tilning xalq tarixi bilan bog‘liqligi, albatta, leksika sohasida ochiq ko‘rinadi. Tovush va grammatik qurilish taraqqiyotida ma‘lum darajadagina tarix bilan bog‘langan ba‘zi xususiyatlarnigina kuzatish mumkin bo‘lsa, lug‘at tarkibining taraqqiyoti jamiyat tarixi bilan bevosita bog‘liqdir.

1. Leksika ijtimoiy hayotdagi barcha o‘zgarishlarni, xalq bosib o‘tgan tarixiy yo‘lning izlarini o‘zida aks ettiradi, saqlab qoladi.

Har qanday tilning tarixi mazkur xalqning ijtimoiy tarixini aks ettiradi. Asl so‘zlar tilning shakllanish davrida qanday narsalar muhim rol o‘ynaganligini, tilning lug‘at tarkibi xalq nima to‘g‘risida fikr yuritishini, sintaksis esa qanday fikr yuritishini ko‘rsatadi.

2. Lug‘at tarkibining boshqa tildan kirgan so‘zlar hisobiga boyishi turli xalqlar va millatlarning iqtisodiy, siyosiy, savdo munosabatlarining zaminida yuzaga keladi”. [3.]

G.Muhammadjonova o‘z ishida o‘zbek adabiy tilining leksik tarkibi, leksik qatlamlarning miqdoriy nisbati, o‘zbek tili leksikasidagi ba‘zi bir semantik o‘zgarishlar, yangi ma‘noning paydo bo‘lish yo‘llari kabi masalalarni o‘rganib chiqqan. [4.43-b.]

#### XULOSA

Oybekning “Navoiy” romani tilining leksik qatlamlari yuzasidan olib borgan tekshirishlarimiz asosida quyidagicha umumiy xulosaga kelish mumkin. Oybekning “Navoiy” romani XX asrda yozilgan XV asr hayotini yorituvchi asardir. Shu sababli ushbu asarda XV asrdagi o‘zbek adabiy tili, Xuroson diyorining ilm-fan, madaniyat va san‘ati haqida ma‘lumot berish bilan birga XX asr o‘zbek adabiy tili namunasini ham ko‘rishimiz mumkin.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent, “Fan”, 1985-yil, 7-bet.
2. Bafoyev B. Navoiy asarlari leksikasining ba‘zi masalalari. –Navoiy va ijod saboqlari. Toshkent, 1981-yil, 118-bet.
3. Muxammadjonova G. O‘zbek tili leksikasi taraqqiyotining ba‘zi masalalari. Fil. fan. nom. dissertatsiyasi. Toshkent, 1972-yil.
4. Begmatov E. Hozirgi O‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent, “Fan”, 1985-yil, 43-bet.